

## MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR LUG`AT BOYLIGINI O`STIRISHDA UNLI VA UNDOSH TOVUSHLARNI O`RGATISH USULLARI

X.S.Akramova

JDPI Maxsusu Pedagogika

Kafedrasi mudiri v.b. dots

Kamola Abduvaitovna

Maxsus Pedagogika, Defektologiya

(Logopediya) mutaxassisligi

1 Bosqich Magistri Po`latova

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlarini, aqliy rivojlanishi bolalarning aqliy jarayonlarida nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nitq faoliyatini boyitish.

**Kalit so'zlar:** Aqli zaif bola, lug`at boyligi, unli undosh tovushlar, tuzatish, muloqot, psixologik o'rganish, ta'lim, artikulyar apparatlar va fonetik eshitish, tahlil va sintez.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi va hayotga tatbiq etilishiga xamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim - tarbiyasi ta'lim muammolari orasida alohida joy egallaydi. Korreksiyon-tarbiyaviy, davolash, ijtimoiy moslashtirish va tiklantirish ishlari maqsadga muvofiq tashkil qilingan –shart-sharoitda bolalar jamoat, mehnatda aktiv ishtirokchi bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va maorif tashkilotlari maxsus muassasalarining tarmog'ini kengaytirmoqdalar, ularning moddiy taminotini kuchaytirib va nuqsonlari bor shaxslarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha har xil tadbirlar o'tkazib kelmoqdalar.

Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiya va ta'lim-tarbiya samaradorligi yangi sifat darajasiga ko'tarish masalasida maktabgacha ta'lim to'g'risida gap ketar ekan, avvalambor, uning huquqiy-me'yoriy ba'zasini ta'minlovchi rasmiy hujjatlarga murojaat qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"ning ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida e'tiborga asosan «Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish birinchi darajali vazifamizdir».

‘Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-sonli 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan farmoni va 2017-yil 30-sentyabrda qabul qilingan PF-5198-sonli ‘Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarori va bizning faoliyatimizga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar maxsus pedagogika sohasida ham bir qator muammoli vaziyatlarni ijtimoiy hal etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim tizimini qayta qurishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatlarini e‘tiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan ta‘limdir.

Maktabgacha yosh davri – bu bola rivojlanishining eng samarali va jadal jarayonidir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlanishi, o‘rganilishi va ular bilan zarur hollarda psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini olib borilishi mumkin qadar ertaroq amalga oshirilsa, mazkur pedagogik-korreksion ish samaradorligini yanada amalga oshiradi. Bu organik yetishmovchilikka ega bolalar o‘z sog‘lom tengdoshlariga qaraganda, aqliy faoliyatini yanada faolroq tarzda rivojlantirishga muhtoj ekanliklari bilan ham asoslanadi. Bolaning rivojlanishida nutq eng muhim ahamiyatga ega. Nutqning rivojlanishi bilan shaxsning, shuningdek barcha psixik jarayonlarining shakllanishi chambarchas bog‘liq.

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo‘lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir. Tilni nutqdan, nutqni esa fikrdan ajratib bo‘lmaydi. Inson qaysi tilda so‘zlamasin, o‘z fikrini so‘z bilan ifodalaydi, chunki ular o‘zaro jins uyg‘unlikka ega. A. Navoiy til kishini hayvondan ajratuvchi yagona belgi deb qaraydi.

Ko‘rinadiki til va nutq inson ma‘naviy kamolotining muhim omillaridan sanaladi. Har qanday madaniy jamiyatning burchi va vazifasi nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan jamiyat a‘zolariga o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishdan iborat. Bolalar nutqini maktabgacha yoshidanoq to‘g‘ri shakllantirish ustida ishlash hayot talabidir.

Nutq buzilishlari deganda gapiruvchi shaxsning ma‘lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati normal holda ishlayotgan psixofiziologik mexanizmlarining zaiflashuviga bog‘liq holda til normalaridan chetlashuvi tushuniladi. Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda esa, nutq buzilishlari bu bilish jarayoni, aloqa vositalarining buzilishidir. Shuning uchun har qanday madaniy jamiyatning burchi va vazifasi nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan jamiyat a‘zolariga o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishdan iborat.

Aqli zaif bolalarda me‘yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga qaraganda nutqi kechikib shakllanadi va bir qator kamchiliklarga ega bo‘ladi. So‘zning tovushining tahlili va sintezi buzilishidagi talaffuz kamchiliklari, lug‘atining qashshoqligi, grammatik qurilishining shakllanmaganligi aqli zaif bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xatto ayrim mustaqil jumlar paydo bo‘lgan taqdirda ham bolalarning aloqasi qator fonetik va grammatik buzilishlar bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, og‘zaki nutq buzilganligi tufayli shaxslararo munosabatga kirishish kechikadi. Aqli zaif bolalarda nutqning buzilish xususiyati yuqori nerv faoliyati va uning psixik shakllanishining o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi..

. Me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqining rivojlanishi yuzasidan bir qancha olimlar samarali ilmiy izlanishlar olib borgan (L.S.Vigotskiy, A.N.Gvozdev, D.B.Elkonin, A.P.Sokolov, N.X.Shvachkin, A.Vallon va boshqalar).

Taniqli olimlar S.Ya.Rubinshteyn, G.A.Kashe, V.G.Petrova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiylar aqli zaif bolalar nutqining me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqidan muayyan darajada orqada qolishini ta'kidladilar.

Respublikamizda intellekti me'yorida maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutqiy kamchiliklar bo'yicha L.R.Mo'minova, X.M.Po'latova, N.R.Raxmonqulova, M.Yu.Ayupova, I.G.Veretennikova va E.A.Babaevalar o'rganganlar.

L.R.Mo'minova (1992) o'z tadqiqot ishlarida maktabgacha bolalarda uchraydigan nutqning to'liq rivojlanmaganligini korrektsiyalash bo'yicha korreksion-pedagogik ish tizimini yaratish, M.Yu.Ayupova (1992) maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish tizimini ishlab chiqish, X.M.Po'latova (1994) nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini faollashtirishning turli jihatlarini tadqiq etganlar.

D.Nurkeldiyeva, V.Raxmanova, S.Aytmetova va M.Xamidovalarning ishlarida aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni yoritilgan.

N.D.Sokolova va G.L.Vigotskayalarning ilmiy izlanishlari maktabgacha aqli zaif bolalarning mustaqil o'yinlarni o'rganishga bag'ishlangan. Mualliflar maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning harakati va xulqini uyushtiradigan va o'yinning zarur sharti bo'lgan o'yin vaziyatini yuzaga keltira olmasliklarini eksperimental ravishda asoslab berdilar. N.D.Sokolova o'yin va nutqning bog'liqligini ko'rsata olgan. Bu bog'liqlik bola nutqini shakllantirishda, lug'atini boyitishda, shuningdek, o'yinning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ham samaralidir. Aqli zaiflik nuqsonining tuzilishida nutqning rivojlanmay qolishi kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar lug'at boyligini o'stirishda unli va undosh tovushlarni o'rgatish usullarini rivojlantirish samarali bo'ladi agar:

- Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar lug'at boyligini o'stirishda unli va undosh tovushlarni o'rgatish muammosining mavjud holati va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinsa va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinsa;

- ushbu toifa bolalar nutqiy va ruhiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda korreksion-rivojlantiruvchi tizimni takomillashtirishga asos bo'luvchi o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanilsa maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar lug'at boyligini o'stirishda unli va undosh tovushlarni o'rgatish tizimining samaradorligi ta'minlanadi.

aqli zaif bolalar lug'at boyligini o'stirishda unli va undosh tovushlarni o'rgatish va asosiy bosqichlari belgilandi hamda ularda nutqni o'yin faoliyati orqali unli va undosh tovushlarni rivojlantirish imkonini beruvchi ba'zi o'yinlar mazmuni ishlab chiqildi. Shuningdek, olingan ma'lumotlar bolalarda mavjud bo'lgan muammolarni erta tabaqalangan ravishda tashhis qilish va bartaraf etish bilan bog'liq bo'lganligi sababli korreksion pedagogikada ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Akramova, H. (2018). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Eastern European Scientific Journal, (6).
2. Akramova, X. (2019). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).

3. Акрамова, Х. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.
4. Акрамова, Х. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Акрамова, Х. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш-муваффакият гарови. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.
6. Акрамова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Акрамова, Х. (2020). Aqli zaif oquvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat konikmalarini shakllantirish metodikasi. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Акрамова, Х. (2020). Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish–muvaffaqiyat garovi. Bola va Zamon jurnal. T, (2-2019).
9. Акрамова, Х. С. (2016). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий-педагогик фаолият. Современное образование (Узбекистан), (4).
10. Акрамова, Х. (2020). Ақли заиф ўқувчиларни компьютер технологиялари асосида меҳнат кўникмаларини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-9. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4013](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013)
11. Акрамова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/918](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918)
12. Акрамова, Х. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/674](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674)
13. Акрамова, Х. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/682](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682)
14. Акрамова, Х. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-7. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3182](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3182)
15. Акрамова, Х. (2020). Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/697](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697)
16. Акрамова, Х. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/897](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897)
17. Акрамова, Х. (2020). Aqli zaif o'quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/916](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916)

18. Акрамова, Х. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3162](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162)
19. Акрамова, Х. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3994](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994).